



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



"Globallashuv jarayonida innovatsion ta'lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar"

mavzusidagi

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari TO'PLAMI

Сборник материалов международной

научно-практической конференции на тему:


«ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ И РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»

"INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES AND SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION"

international scientific-practical conference on a collection of
materials



Termiz - 2023



OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“GLOBALLASHUV JARAYONIDA INNOVATSION TA'LIM VA MILLIY TARBIYA: INTEGRATSIYAGA XOS MUAMMOLAR, BAHSLAR VA YECHIMLAR”

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to'plami**

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции на тему: «ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И
НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ И РЕШЕНИЯ
ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»**

**“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE PROCESS
OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES AND
SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”
international scientific-practical conference on
a collection of materials**

УДК 160,-(317,0)

2,28-3

КБК 86,39

A39

“Globalashuv jarayonida innovatsion ta'l'm va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar”

“Globalashuv jarayonida innovatsion ta'l'm va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami - Сборник материалов международной научно-практической конференции на тему:

“Инновационное образование и национальное воспитание в условиях глобализации: дискуссии и решения интеграционных проблем” // Q.B. Qodirovning um.tahr.ost. - Termiz: “KITOB NASHR”, 2023. – 1022 b.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliv ta'l'm tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to'g'risida o'tkazilgan majlisning 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoniga ko'ra 2023-yilning 26-27 may kunlari Termiz davlat pedagogika institutida “Globalashuv jarayonida innovatsion ta'l'm va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar” mavzusida pedagogika fanlari yo'nalishi bo'yicha I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Termiz davlat pedagogika institutida tashkil etilmoqda.

Globalashuv jarayonida innovatsion ta'l'm va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar

Pedagogika fanlari doktori Q.B. Qodirovning umumiy tahriri ostida.
Под общей редакцией - доктора педагогических наук К.Б. Каирова.

TAHRIR HAY'ATI / РЕДКОЛЛЕГИЯ

Xasanov I.T.	Termiz davlat pedagogika instituti rektori v.v.b., professor;
Kadirova O.X.	Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Tojiyev P.J.	Termiz davlat pedagogika instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori, kimyo fanlari doktori, dotsent;
Samiyev A.S.	Termiz davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Turamuratov U.U.	Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b;
Sattorova D.Dj.	Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi;
Nazarova Z.A.	Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi;
Rasulova Z.R.	Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi;
Artikova K.K.	Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi;

ISBN 978-9943-9397-9-0

“КИТОБ НАШР”, 2023

kerak bo'lgan "ob'ektiv bilimlar" manbai bo'lib qolmaydi. Uning bosh vazifasi talabalarda mustaqil ravishda bilimlarni olishga o'rghanishni, tashabbus ko'rsatishni, qarorlar qabul qilishni, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etishini, jamoada o'qish va izlanish ko'nikmalari va shu kabi malakalarni rivojlantirishdan iborat bo'lmoji lozim. Tayanch ma`naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda qanday pedagogik texnologiyalardan yoki ularning birikmasidan foydalanilsa, samarasi yuqori bo'ladi? Ularni ajratib olishda eng muhim mezon bo'lib talabalarda kommunikatsiya va mustaqil ijod qilishni va izlanishni samarali ta'minlash hisoblanadi. Ushbu mezonga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli modul, rivojlantiruvchi, loyihalash, tadqiqotchilik kabi texnologiyalardan foydalanish ma'quldir. Ma'lumki, har qanday texnologiya talabalarning ijtimoiy faolligi va tarbiyalanganligi darajasi va oldin qo'yilgan maqsadga qanchalik erishilganligini aniqlaydigan tashxislash natijalariga suyanadi. Bu yerda talabalarda bilim, ko'nikma, malakalar (BKM) va kompetensiyalarni parallel ravishda rivojlantirishni ta'lim maqsadiga va uning boshqa tarkibiy qismlari bo'lgan mazmuni, shakli, metodlari, vositalariga kiritish kerak. Demak, talabalarning bilimini baholab borish bilan birgalikda tayanch ma`naviy kompetensiyani rivojlanganlik darajasini nazorat qiluvchi va baholovchi mexanizmni yaratish va ishlatish zarur bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, psixologiya va pedagogika darslarida kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlarni talabalar tomonidan bajarish orqali ularda tayanch ma`naviy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin. Bunday topshiriqlarni bajarishda talabalar jamoa bo'lib ishlaydilar va o'zaro kommunikatsiyaga kirishadilar, zaruriy axborotlarni qidiradilar, ulardan zarurlarini ajratib oladilar, tadqiqot olib boradilar, xulosalar chiqaradilar va taqdimot o'tkazadilar. Bu jarayonda talabalar o'zini-o'zi rivojlantiradilar, ijtimoiy faol bo'lishni, hamda jamiyatda bo'layotgan voqeя va hodisalarga ongli munosabatda bo'lishga odatlanadilar hamda psixologik-pedagogik bilimlarini namoyon qiladilar.

Foydalanilgan adaabiyotlar

- Asadov Yu. M. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. "Ta'lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. T., 2014. 12-16 b.
- Maxmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarни ma`naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T.: 2004. – 179 b.
- Norboyeva S.M. Talabalarda ma`naviy kompetentlikni rivojlantirish. Metodik qo'llanma. – Termiz: Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti, 2021. – 43 b.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ АУТОПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИ ТУЗИЛМАСИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Парниева Малика Моминовна, Чирчик давлат педагогика университети

Технологик таълим кафедраси в/б доценти, PhD

СТРУКТУРА АУТОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

*Парниева Малика Моминовна, Чирчикский государственный педагогический
университет, PhD, и.о. доцент кафедры технологического образования*

THE STRUCTURE OF THE AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE OF TEACHERS AND ITS FEATURES

Parpieva Malika Mominovna, Chirchik State Pedagogical University, PhD, acting Associate Professor of the Department of Technological Education

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мақкамасининг 2017-йил 6 апрелдаги 187-сон қарори билан тасдиқланган “Умумий ўрта таълимнинг Давлат Таълим Стандарти”да компетенция тушунчасига мавжуд билим, кўнишка ва малакаларни қундалик фаолиятда кўллай олиш қобилияти сифатида таъриф берилади [1]. Шу жиҳатдан педагогик компетентликнинг: а) **маҳсус ёки қасбий компетентлик** (қасбий фаолиятни юқори даражада ташкил этиш); б) **ижтимоий компетентлик** (қасбий фаолиятни ҳамкорликда ташкил этиш); в) **аутопедагогик компетентлик** (ўзи-ўзини ижтимоий қасбий ривожлантира олиш); г) **экстремал қасбий компетентлик** (кутилмаган вазиятларда ишлай олиш) каби таркибий асослари бўлиб, олий таълим муассасаларида педагог кадрлар тайёрлаш мазмунининг принципиал ўзгариши замонавий таълим парадигмалари ўзгариши билан боғлиқ ҳолда педагогик тайёргарликни ташкил этишга янгича методологик ёндашувларга мувофиқ муайян аутопедагогик компетентликни амалга ошириш талаб этилади.

Аутопедагогик компетентлик қасбий компетентлик негизида шаклланади. Ўқитувчilar қасбий компетентлиги борасида кўплаб олимлар тадқиқот ишларини олиб боришган. Масалан, Б.Д.Эльконин ривожлантирувчи таълимда компетентлик тушунчаларини қуидагича изоҳлайди: компетенция – нимадандир яхши хабардорлик, маълум бир шахс, муассаса ва ташкилотнинг ваколатлари доираси, билимларга асосланган умумий қобилияtlари, тажрибалари, таълим олиш асосида ўзлаштирилган имконият ва қадриятларидир; компетентли шахс – маълум бир соҳа билан яхши таниш, шу соҳада яхши билимларга эга, ҳар доим билимига таяниб иш кўрадиган, маълум ваколатларга эга бўлган шахс ҳисобланади; компетентлик – олдинга қўйилган вазифаларни бажаришда индивидуал ва ижтимоий эҳтиёжларга самарали жавоб бера олиш; компетентли бўлиш – тегишли мақсадга нисбатан тажриба ва олинган билимларни маълум вазиятларда кўллашга сафарбарлик қўнижасига эга бўлишdir; асосий компетентликлар – қундалик ва қасбий ҳаётида келажакда қўйиладиган замонавий талабларни уддалашида инсон учун зарур бўлган асосий шахсий сифатларда намоён бўлади [5].

В.П.Бездухов компетентлик тушунчасини ижтимоий-педагогик контекстда очиш асосида унга нисбатан кенг кўламли қоидани ифодалаб беради. Тадқиқотчи компетентлик таълим жараёни таъсирида юзага келадиган инсоннинг хусусияти сифатида унинг фаол хусусий ҳаётий фаолияти маҳсули эканлигини назарда тутади [2]. У компетентлик индивидга хос хусусият сифатида турли шаклларда намоён бўлишини, яъни қўнижасига юқори даражаси сифатида; шахснинг ўзини ифода этиш услуби сифатида (одатлари, ҳаётий фаолият услуби, қизиқишилари); индивид ўзини ўзи ривожлантиришининг натижаси; қобилияtlарнинг намоён бўлиш шакли, деб таъкидлаган.

Б.В.Авво, А.И.Ахулкова, В.Д.Больнов ва Н.В.Черемушкина, Б.А.Адольфлар компетентлик билимларни мунтазам янгилашга интилиш, улардан конкрет вазиятларда фойдаланиш, яъни оператив ва мобил билимларни эгаллаш; мослашувчанлик, танқидий тафаккур, нисбатан энг самарали ва оптималларини танлаш, нотўғриларини инкор қилиш каби тўғри ва самарали қарорлар қабул қилиш мақсадида мунтазам янгиланиб туришни назарда тутадиган нисбатан оператив ва мобил билимларни назарда тутиши тўғрисида фикр юритганлар. Бу эса, ўз навбатида, мутахассисларнинг узлуксиз ўз билимларини ошириб боришлири кераклигини исботлайди.

Юқорида қайд этилгани каби бошқа кўплаб муаллифлар томонидан ҳам шахс фаолиятида, таълимда компетентликнинг муҳим аҳамиятга эга эканлиги, педагогнинг касбий ривожланиши ўз фаолиятини такомиллаштиришга ҳаракат қилиши лозимлиги сингари ҳозирги кунда барча мамлакатлар равнақида таълим ва тарбиянинг роли муҳимлиги қайд этилган. Мисол учун, Польшада ўқитувчилар касбий компетентлигини ривожлантириш масалаларига алоҳида аҳамият қаратилади. Бу мамлакатда педагоглар касбий компетентлиги таркиби доирасида турли вазиятларда ўзини муносиб тутиш, касбий ахлоқ оқибатлари ва унинг заруратини англаб етиш, шунингдек, ўзи амалга оширган хатти-ҳаракатлар учун масъулият, жавобгарликни ҳис қилишга катта эътибор қаратилади [4]. АҚШда эса, педагоглар фаолиятини касбий баҳолашга катта эътибор ва аҳамият қаратилади. Демак, бу мамлакатда педагоглар, тадбиркорлар, сиёсатчилардан иборат ўқитувчилар профессионализмини баҳолаш кенгаши яратилган. Мазкур кенгаш ўз фаолиятида турли анкеталар, сўровномалар, рейтинг баҳолаш, ўз-ўзини баҳолаш, портфолио методи, кузатиш ва бошқаларни самарали қўллаб келмоқда. Ушбу ҳаракатлар педагогларни аниқ мақсадга йўналтирилган касбий компетентликларини оширишга йўналтиради.

Ю.В.Валыновнинг таъкидлашича, Буюк Британия, Хитой, Корея ва бошқаларда ўқитувчилар касбий компетентлигини ошириш, ўқитиши сифатини яхшилашга катта эътибор қаратилмоқда. Бошқа малакатларда, масалан, Германия, Австрия, Канада каби давлатларда асосий йўналиш ўқитувчиларни ишга қабул қилиш жараёнида маълумоти ва малакасига бўлган талабларнинг кун сайин ошиб бориши билан характерланади. Аксарият ривожланган давлатларда педагогларнинг узлуксиз таълимига катта эътибор қаратилган ва уларга юқори талаблар қўйилган [3].

Замонавий илмий педагогик адабиётларда талабаларнинг аутопедагогик компетентлигини шакллантириш муаммоси О.М.Шиян томонидан батафсил қўриб чиқилган. Замонавий олимларнинг тадқиқотларида В.Н.Введенский, В.А.Сластенин, Т.В.Зобнина, Е.П.Кузнецова ва бошқаларнинг ишларида “Ўқитувчининг касбий маҳорати” тушунчаси қўриб чиқилган. Т.А.Михайловская, А.В.Морозов, В.И.Загвязинский, В.А.Кан-Каликлар бўлажак мутахассислар тайёрлаш ва педагогик ижодкорликка оид долзарб масалаларни, М.Ю.Прокофьева, Е.В.Прозорова, Е.А.Садовская, И.Э.Ярмакеевларнинг илмий изланишлари бўлажак ўқитувчиларни касбий тайёрлашни такомиллаштиришга бағишиланган.

Фойдаланилган адабиётлар

- Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 187-сон Қарори. 2017 йил 6 апрель.
- Бездухов В.П. Теоретические проблемы становления педагогической компетентности педагога / В.П. Бездухов, С.Е. Мишина, О.В. Правдина; Самарский гос. пед. университет. - Самара: Издательство СамГПУ, 2011. - 132 с. - Библиогр.: С. 120-132
- Валынов Ю.В. Зарубежный опыт подготовки педагогических кадров // Ю.В. Валынов. - Харьков: Скорпион, 2000. - 120 с.
- Парпиева М.М. Компоненты профессиональной компетентности преподавателей системы высшего педагогического образования/“Илмий ахборотлари”, №9, 2020 й, 58-65 бет.
- Эльконин Б.Д. Понятие компетентности с позиций развивающего обучения //Б.Д. Эльконин// Современные подходы к компетентностно-ориентированному образованию. - Красноярск, 2002 - 67 с.

O'QITUVCHILARDA KREATIV SIFATLARNI RIVOJLANТИRISHNING KOMMUNIKATIV METODLARI

Nazarova Zarrina Allaberdiyevna TDPI Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy mustaqillik qo'lga kiritilgach, hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida ham tub islohotlar olib borilib ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida ta'lim berish tili ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi Ta'lim tashkilotlarida o'qituvchining tilidan foydalanish tartibi “Davlat tili xaqida” gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari va qator asarlarida ta'lim va tarbiya O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinib, maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo o'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonida namoyon bo'ladi. «Kommunikatsiya» atamasi fanga XX asrning boshida kirib kelgan. «Kommunikatsiya» lotincha communicatio, communico so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, bog'layman, muloqot qilaman ma'nolarini anglatadi. Ijtimoiy fanlarda kommunikatsiya birgalikda harakat qilish, o'zaro ta'sir haqidagi ilmiy bilim sohasi hamda ushbu jarayonlar va ularning natijalarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kommunikatsiya muammolariga tadqiqotchilar, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin qiziqa boshlashdi. Bunga yaqqol misol sifatida 1960-yillar boshiga kelib, falsafa va sotsiologiya ilmiy adabiyotlarida kommunikatsiya tushunchasining yuzdan ortiq ta'riflari mavjud bo'lganini aytish mumkin. Shularda bir nechtasini keltirib o'tamiz:

-Kommunikatsiya – bu axborotni o'ziga xos almashish, uning emotsiyal va intellektual mazmunini aks ettirish jarayoni.

-Kommunikatsiya – insonlarning kongitiv va mehnat faoliyati jarayonida o'zaro munosabatlarga kirishishning o'ziga xos shakli.